



## QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION YONDOSHISH AHAMIYATI

Safarova Dilfuza Baxromovna

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va  
biotexnologiyalar universiteti Toshkent filiali katta o'qituvchisi  
dilsafarova1975krasotka@gmail.com  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.15244225>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-Aprel 2025 yil  
Ma'qullandi: 15-Aprel 2025 yil  
Nashr qilindi: 19-Aprel 2025 yil

### KEYWORDS

инновация, инновацион  
иқтисодиёт, қишлоқ  
хўжалиги, инновацион  
жараён, инновацион  
ривожланиш

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Mazkur sohaning innovatsion rivojlanishiga ta'sir etuvchi ijobiy va salbiy omillar ham aniqlanib, salbiy omillarni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi.*

Qishloq xo'jaligini rivojlantirishda innovatsion yondashuv hozirgi zamonning eng dolzarb masalalaridan biridir. Aholi sonining ortishi, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, resurslardan samarali foydalanish, ekologik muammolarni bartaraf etish kabi global muammolarni hal qilishda innovatsion texnologiyalarning o'rni beqiyosdir.

So'nggi yillarda qishloq xo'jaligini isloh qilish va bozor mexanizmlarini joriy etish bo'yicha ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Zero, mamlakatimiz qishloq xo'jaligi bo'yicha katta salohiyatga ega. Ta'kidlash joizki, mamlakat yalpi ichki mahsulotining to'rtidan biri, aynan mazkur sohaga to'g'ri keladi. Shu bilan birga, respublika bo'yicha band bo'lgan aholining qariyb 24,9 foizi qishloq xo'jaligi tarmog'iga to'g'ri kelib, bu ko'rsatkich 3,5 mln. kishini tashkil etmoqda.

Bu esa, nafaqat iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlash va aholi farovonligini oshirishda qishloq xo'jaligi tarmog'ining o'rni g'oyatda muhim ekanligini, balki bevosita sohada amalga oshiriladigan islohotlarga ham bog'liqligini ko'rsatmoqda.

O'z navbatida aytish lozimki, so'nggi yillarda tobora kuchayib borayotgan iqlim o'zgarishi, suv resurslarining tanqisligi, yerlarning melorativ holati buzilishi kabi muammolar sabab, O'zbekistonda mazkur soha qator muammo va tahdidlar girdobida qoldi. Bundan tashqari, yillar davomida ushbu sohada to'laqonli bozor munosabatlariga asoslangan islohotlarning amalga oshirilmaganligi, ya'ni ushbu soha davlat tomonidan eng ko'p tartibga solinadigan soha bo'lganligi, davlat buyurtmasi, yerdan foydalanishga bo'lgan huquqlarning cheklanganligi va himoyalanganligi kabi muammolar ushbu tarmoqdagi samaradorlik, unumdorlik ko'rsatkichlarining pasayishiga sabab bo'ldi.

2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasiga muvofiq, qishloq xo'jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini

kamida 2 baravarga oshirish, qishloq xo'jaligining yillik o'sishini kamida 5 foizga yetkazish ustuvor maqsad sifatida belgilandi.

O'tgan davrda xalqaro bozorda o'zbek paxta va to'qimachilik mahsulotlariga boykot tugatilganligiga erishildi. O'zbekiston Yevropa Ittifoqiga to'qimachilik mahsulotlarini bojsiz olib kirishni ta'minlaydigan GSP+ savdo maqomini oldi, natijada ushbu mahsulot eksportini 2012 yildagi 3,2 mlrd. dollardan 2024 yilda 4,2 mlrd. dollargacha oshirishga erishildi.

Shuningdek, suv resurslarining tobora kamayib borayotganligi bois, mazkur sohada qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030 yillarga mo'ljallangan konsepsiyasi tasdiqlandi. Ta'kidlash joizki, 2017–2022 yillarda jami 1,4 mln. gektar maydonda suv tejovchi texnologiyalar joriy etildi. Maqsad bitta – iqtisodiy foyda ko'rish bilan bir qatorda, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, xalq farovonligini oshirishdan iborat.

Ayniqsa, yurtimizda ekin maydonlarini optimallashtirish va qishloq xo'jaligi ekinlarini hududlashtirish siyosati, klaster tizimi, zamonaviy issiqxona xo'jaliklarini yaratish, tomorqa xo'jaligi amaliyotini kengaytirish qishloqda aholining turmush darajasini sezilarli darajada oshirish imkonini berdi.

Qishloq xo'jaligini rivojlantirishda innovatsion yondoshish — bu sohada yuqori samaradorlikka erishish, mehnat unumdorligini oshirish va ekologik barqarorlikni ta'minlash uchun yangi texnologiyalar, ilg'or ilmiy yutuqlar va yangicha tashkilotchilik usullaridan foydalanishni anglatadi. Bu yondoshuv quyidagi asosiy yo'nalishlarni qamrab oladi:

Innovatsion yondashuv — bu mavjud muammolarga yangicha, ilg'or, zamonaviy texnologiyalar va g'oyalar asosida yechim topishdir. Qishloq xo'jaligida bu yondashuv quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Texnologik yangiliklar (masalan, dronlar, sun'iy intellekt, IoT – narsalar interneti)
- Agrotexnologiyalar (gidroponika, aeroponika, akvaponika)
- Biotexnologiyalar (genetik modifikatsiyalangan mahsulotlar, bioo'g'itlar)
- Axborot texnologiyalari (raqamlashtirish, masofadan boshqaruv, monitoring tizimlari)

Qishloq xo'jaligida innovatsiyalarni amalga oshirish natijasida hosildorlik oshadi ya'ni zamonaviy texnikalar va agrotexnik usullar yordamida, mehnat unumdorligini oshadi ya'ni avtomatlashtirilgan tizimlar tufayli inson omiliga bo'lgan ehtiyoj kamayadi, resurslar tejaladi ya'ni suv, o'g'it va yer resurslaridan samarali foydalaniladi, ekologik xavfsizlik nuqtai nazaridan kimyoviy vositalardan foydalanishni kamayadi, barqaror rivojlanish tamoyillariga amal qilinadi.

Amaliy innovatsion texnologiyalar misollari keltirsak, masalan dronlar yordamida yer maydonlarini kuzatish, zararkunandalarni aniqlash, urug' sepish, sun'iy intellekt yordamida ob-havo prognozlarini asosida qaror qabul qilish, kasalliklarni oldindan aniqlash, GPS tizimlari yordamida traktorlar va boshqa texnikani aniq boshqarish, ish faoliyatini optimallashtirish, smart fermer xo'jaliklari yordamida barcha jarayonlar avtomatlashtiriladi va nazorat ostiga olinadi.

O'zbekistonda innovatsion yondashuvlar orqali "Agrotexnologik parklar" tashkil etib, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini, raqamli agroxizmatlar tashkil etish, mobil ilovalar orqali bozor narxlarini, agro maslahatlar berish, ilmiy-tadqiqot institutlari faoliyati olib borib, urug'chilik, tuproqshunoslik, seleksiya sohalarida, xalqaro hamkorlik orqali FAO, UNDP, KOICA kabi tashkilotlar bilan hamkorlikda loyihalarda yuqori natijalarga erishish mumkin.

Innovatsion yondashuv qishloq xo'jaligida yuqori samaradorlikka, oziq-ovqat xavfsizligiga va barqaror rivojlanishga erishishda muhim o'rin tutadi. O'zbekistonda ham agrosohada raqamlashtirish, innovatsiyalarni joriy etish va xalqaro tajribalardan foydalanish orqali qishloq xo'jaligini yangi bosqichga olib chiqish imkoniyatlari mavjud.

Umuman, innovatsion g'oyalarni faol rivojlantirishda qishloq xo'jaligi tarmog'ining deyarli hamma sohalarida imkoniyatlar mavjud. Biroq, g'oyalarni amalga oshirishda tizimdagi ilmiy tadqiqot va oliy ta'lim muassasalarining bo'lim va laboratoriya boshliqlari, yetakchi, katta ilmiy xodimlari, kafedra mudirlari, professor, dotsent va katta o'qituvchilar, o'qituvchilar va yosh olimlarning innovatsion faolligini talab darajasida deb aytib bo'lmaydi. Shuningdek, innovator olimlarning doirasi ham u qadar keng emas.

Qishloq xo'jaligining innovatsion rivojlanish muammolari O'zbekiston uchun alohida dolzarblik kasb etadi, chunki faqatgina yangi resurstejamkor, ilg'or texnologiyalardan keng va samarali foydalangan holda innovatsion rivojlanish atrof-muhitni saqlab qolishni hisobga olib qishloq xo'jaligining iqtisodiyot barqarorligini jadal sur'atlarda o'sishini ta'minlaydi.

### **Xulosa va takliflar**

Qishloq xo'jaligini innovatsion rivojlantirish orqali qishloq xo'jaligi korxonalarini raqobatli ustunliklari shakllantiriladi, eng muhimi, moslashuvchanlik va bozordagi barcha o'zgarishlarga tezda javob berish imkoniyatlari oshib boradi.

Qishloq xo'jaligi tarmog'ida zamonaviy texnologiyalarning turli variantlarini taqqoslash natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, yerga eng kam ishlov berish, joriy va investitsiyaviy xarajatlarni tejash, tannarxi ancha past bo'lgan mahsulotni ishlab chiqarish va narxlarning bir xil darajasida har bir ekin bo'yicha bir gektar yerdan ko'proq daromadlar olish imkonini beradi.

Qishloq xo'jaligida innovatsion texnologiyalarni o'zgartirish – tizimli yondashuvni, an'anaviy texnologiyalardan yangi resursni tejoychi texnologiyalarga o'tishda korxonaning texnologik tizimida yuz beradigan barcha o'zgarishlar haqidagi bilimlarni talab qiluvchi murakkab jarayondir. Shu munosabat bilan qishloq xo'jaligi korxonalarida texnologik va tashkiliy-iqtisodiy innovatsiyalarni joriy etishning jarayonli algoritmlarini ishlab chiqish zarur.

Qishloq xo'jaligida innovatsion yondashuvlar joriy etilishi nafaqat iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi, balki ekologik barqarorlik, oziq-ovqat xavfsizligi va ijtimoiy rivojlanish uchun ham muhim omildir. Innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash, ularni keng ommaga tatbiq etish va yosh mutaxassislarni jalb qilish bu boradagi muvaffaqiyatning kalitidir.

### **Adabiyotlar:**

1. [https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/Article\\_16\\_0.pdf](https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/Article_16_0.pdf)
2. [https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/33\\_S\\_Hamrayeva.pdf](https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/33_S_Hamrayeva.pdf)
3. <https://lex.uz/docs/5262596?ONDATE=16.02.2024%2000>
4. <https://yuz.uz/news/ozbekistonda-qishloq-xojaligini-rivojlantirish-yolida-innovatsion-guruhlar-faoliyati-yolga-qoyiladi>
5. <https://gov.uz/uz/news/view/16038>
6. <https://strategy.uz/index.php?news=1767>
7. [https://www.researchgate.net/publication/351647596\\_Uzbekiston\\_Respublikasi\\_kislok\\_h\\_uzaligini\\_innovacion\\_rivozlantiris\\_istikbollari](https://www.researchgate.net/publication/351647596_Uzbekiston_Respublikasi_kislok_h_uzaligini_innovacion_rivozlantiris_istikbollari)